

SOYA ZARARKUNANDALARINING BOSHQA O'SIMLIKLAR BILAN
TROFIK(OZUQAVIY) OZIQLANISHI.

Bekchonova Marhabo Foyzullayevna

Fardu o`qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Soya o'simligining zararkunandasi bo'lgan tunlamlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Soya, dukkakdoshlar, sariq, tunlamlar, o'rgimchakkana, sariq, sertuk.

Soya (Glycine) — dukkakdoshlarga mansub bir yillik o'tsimon o'simliklar turkumi, dukkakli don va moyli ekin. 10 turi Afrika va Janubiy Osiyo, Sharqiy Osiyoning nam tropik va subtropiklarida, 1 yovvoyi turi Uzoq Sharqda uchraydi. Vatani — Xitoy. Soya juda qadimdan ekiladigan ekin. Milloddan avvalgi 5 ming yillikdan boshlab ekib kelinadi. AQSH, RF, Hindiston, Yaponiya, Koreya, Indoneziya, Ukraina, Moldaviya, Gruziya va O'zbekistonda yetishtiriladi. Jahon bo'yicha Soya ekin mayd. 73,6 mln. ga, o'rtacha don hosildorligi 22,1 s/ ga (2000): O'zbekistonda 20-asrning 60-yillaridan keng tarkala boshladi. Oddiy Soya (G.max) turining ildizi yaxshi rivojlangan, o'q ildiz, sershox, tuproqqa 2 m chuqurlikkacha kirib boradi, asosiy qismi haydalma qatlamda joylashadi (ildizida tuganak bakteriyalar rivojlanadi). Poyasi dag'al, silindrsimon, tik usadi, ammo yotib qoladigan navlari ham bor. Buyi 15 sm dan 2 m gacha, shoxlanadi, yon shoxlari 2—8 ta bo'ladi. Bargi sertuk, bandli, bandining uz. 8—20 sm, barg shapalog'ining uz. 13—15 sm., Guli mayda, oq yoki pushti, shingil gulto'plamga yig'ilgan, barg qo'ltig'ida joylashadi. Mevasi dukkak, sariq, qora, qo'ng'ir, sertuk. Har bir dukkagida 2—6 ta don bor, 1000 ta doni vazni 40—425 g. Tarkibida 24—45% oqsil, 13—37% yog', 20—32% uglevodlar, 1—2 % litsitin, D, V, Ye va b. vitaminlar bor. Urug'idan yog', oqsil va litsitin olinadi. O'suv davri 75—200 kun. Soya issiqsevar va namsevar, yorugsevar qisqa kun o'simligi. 21—23° da yaxshi rivojlanadi. Urug'i 8—10° da unib chiqadi. Soya uzidan changlanadi. Gullash davri 15—55 kun davom etadi. Undan Soya uni va moyi (q. Soya moyi) olinadi. Doni, pishib yetilmagan (dumbul) dukkagi ovqatga ishlatiladi. Soya unidan sut, tvorog, kandolat mahsulotlari tayyorlashda foydalaniladi. Somoni, tuponi, ko'k poyasi, silosi ozuqa sifatida chorva mollariga beriladi. O'zbekiston sholichilik institutida 1981—88-yillarda Soyaning O'zbekiston 2, O'zbekiston 6, Do'stlik navlari chikarilgan va barcha viloyatlar uchun rayonlashtirilgan. Kasalliklari: bakterioz, septorioz, askoxitoz, fuzarioz. Zararkunandalari: tunlamlar, o'rgimchakkana, qorakuya.

Biz tunlamlar haqida gaplashamiz.

Kuzgi tunlam (*Agrotis segetum* Schiff.), ko'k qurt tunlami — tunlamlar turkumiga mansub zararkunanda kapalak. Ko'zgi ekinlar, g'o'za, qand lavlagi, kungaboqar, makkajo'xori va boshqa (150 turdagi o'simliklar) maysalarini zararlaydigan xavfli zararkunanda. Afrika, Yevrosiyo, shu jumladan, O'rta Osiyoda tarqalgan. O'rta Osiyoda

g'o'za (35% gacha), makkajo'xori maysalariga (12—18%), beda, kungaboqarga, begona o'tlardan sho'ra, pechako't va boshqa ga katta zarar yetkazadi. Qanotlari yoyilganda 34–45 mm. oldingi qanotlari och-qo'ng'irdan qoramtir tushgacha. Tuxumi sutsimon oq; 2—3 kun o'tgach, ularda qizg'ish doirachalar paydo bo'ladi, qurtlari chiqishidan oldin esa tuxumi qorayadi. Qurtlari tuproqning 10—25 sm chuqurligida qishlaydi. Yiliga 3—4 avlod beradi. Kishlab qolgan avlod kapalaqlari samarali harorat yig'indisi 550° bo'lganda (g'umbagining rivojlanishi uchun harorat 10° dan kam bo'lmasligi kerak) uchib chiqadi. Kapalaklarning eng ko'p uchib chiqishi va juda ko'p miqdorda tuxum qo'yishi havo harorati 12— 20° bo'lganida kuzatiladi. Tuxumlarini tarqoq holda o'simlik bargining orqasiga qo'yadi. 4—15 kundan keyin tuxumdan chiqadi, ular kunduzi tuproqda yashirilib yotadi, tunda yuzaga chiqib, maysa va yosh niholdar tanasi, kurtagi, nishini kemiradi, barglarini tyoshib tashlaydi. Kurash choralari : begona o'tlarni yo'qotish; ko'zgi shudgor; kapalaklar uchishi boshlanishi ko'zatilgan dalalarga trixogramma tarqatiladi, feromon tutqichlar qo'yiladi, 1 feromon tutqichga bir kechada 15—20 kapalak tushsa kimyoviy preparatlardan zolon — 2,5—3 l/ga, detsis — 0,7 l/ga va boshqa insektitsidlar eritmalari purkaladi.

G'o'za tunlami, ko'sak qurti — tunlamlar oilasiga mansub kapalak. Paxta ekiladigan mamlakatlarda tarqalgan. G'o'za tunlamining qurti 120 dan ortiq o'simlik turini zararlaydi, ayniqsa, Tojikiston, O'zbekiston va Ozarbayjonda katta zarar yetkazadi. Qanotlari yoyilganda 30–40 mm; oldingi qanoti kulrang sariq, buyraksimon, yumaloq dog'li, orqa qanoti sarg'imtiroq, qo'ng'ir hoshiya-li, o'rtasida to'q rangli oysimon dog'lari bor. Erkagi urg'ochisiga nisbatan ochiqroq rangda. Tuxumi och sarg'ish, o'ziga xos radial "qobirg'alari" bor. Qurtining rangi och yashildan to qiz-g'ish-qo'ng'irgacha, uz. 35–40 mm; boshi sariq, ko'krak qalqoni marmarsimon naqshli. Tanasi bo'ylab uchta keng yo'l o'tadi, qorni oqish. G'umbagi qizg'ish-jigarrang, uz. 15–20 mm. G'o'za tunlamining gum-bagi tuproqda 10—15 sm chuqurlikda qishlaydi. Havo harorati o'rtacha 18— 20° bo'lganda gumbakdan kapalaklar yoppasiga uchib chiqa boshlaydi. O'rta Osiyoda birinchi avlod kapalaklarining uchib chiqishi 1 —1,5 oy (apr.may) davom etadi. G'o'za tunlami g'o'zaga shonalash boshlanganda o'ta boshlaydi, ungacha birinchi bo'g'in pomidor, no'xat, makkajo'xori va begona o'tlar (bangidevona, g'o'zor)da rivojlanadi. Kapalaklar o'simlik bargi va hosil organlariga 1—3 tadan tuxum qo'yadi. Bitta urg'ochi kapalak o'rtacha 500, ba'zan esa 1000 gacha tuxum qo'yishi mumkin. Yoz oylarida bir avlodning rivojlanishi uchun 25—35 kun kifoya. O'rta Osiyoda 3—4 avlod beradi. Yosh barglar, shona va g'unchalarni, yosh ko'saklarni yeydi (ikkinchi nomi ham shundan). Bitta qurt 10—24 hosil elementiga zarar yetkazishi mumkin.

Kurash choralari: Agrotexnik kurash tadbirlaridan chilpish davrida chilpilgan qismni yig'ishtirib, daladan tashqariga chiqarib tashlash, zararlangan makkajo'xorilarni silos uchun sut — dumbul davri boshlaridayoq, ya'ni qurtlar g'umbaklanish uchun tuproqqa tushmasidan oldinroq o'rib olish. Biologik kurash tad-b i r l a r i : tuxumlariga qarshi 5—6 kun oralatib uch marta 60+80+60 ming dona/ga

hisobida trixogramma tarqatish; qurtlariga qarshi 7—8 kun oralatib gabrobrakon xo'jayin-parazitni 1:20; 1:10; 1:5 nisbatida qo'llash.

Kimyoviy kurash: g'o'zaga insektitsidlar purkash.

Yovvoyi tunlam, janub tunlami [*Euxoa conspicua* Hp. (*Oria musculosa* Hb.)] — tunlamlar oilasiga mansub kapalak. Qanoti yoyilganda 25–38 mm. Oldingi qanotlari to'q kulrangdan jigarranggacha bo'lib, o'rtasidan och tusli yo'llar o'tadi, buyraksimon hamda dumaloq dog'lari bor. Keyingi qanotlari och rangda. Tuxumi och sariq. Qurtlari 30 mm cha, nim yashil tovlanuvchi tuproqrang, kulrang. Ustidan bo'ylama ikkita qoramtir yo'l o'tgan. G'umbagi qizg'ish jigarrang. Shakllangan qurti tuxum holida qishlaydi. Sutkalik o'rtacha harorat 6—8° bo'lganda qurtlari chiqa boshlaydi. Tuproqning 5—10 sm chuqurligida g'umbakka aylanadi. G'umbaklik davri 20—24 kun. Iyunda uchib chiqqan kapalaklari bir oy o'tgach (iyulda) yozgi diapauzanp kechiradi va o'rtacha harorat 18—20° bo'lganda harakatga kiradi. Urg'ochilari tuxumini to'p-to'p qilib (8—130 tagacha) oziqlanadigan usimligi yaqinidagi tuproqqa qo'yadi (hammasi bo'lib 100—350 gacha). Yilda bitta avlod rivojlanadi. O'rta Osiyo, Qozog'iston va b. joylarda tarqalgan. G'o'za, bug'doy, javdar, arpa, makkajo'xori, beda, sudano't, oq jo'xori va b. ekinlarga zarar keltiradi. Kurash choralari: boshokli begona o'tlarni yo'qotish; ang'izni chuqur qaydash, almashlab ekishda boshoqlilarni ketmaket ekmaslik; ekinlarga xlorofosning 80% li h.k. (1,5—1,8 kg/ ga)ni purkash yoki pestitsidlar dustlarini changitish; zararlangan dalalarga trixogramma tarqatish.

Xulosa:

Soya ekinida zamburug'lar, bakteriyalar hamda virus kasalliklarining bir necha xil turlari uchraydi. Bular ildiz chirishi, o'simlikning so'lishi, bargda, dukkak va donda har xil dog'larning paydo bo'lish belgilari bilan namoyon bo'ladi. Boshqa o'simliklar kabi zang, un-shudring, fuzarioz, askoxitoz kasalliklari hamda o'rgimchakkana zararkunandasi kabilar soya o'simligiga ham xos. O'rgimchakkana soya o'simligiga kuchli zarar yetkazadi. Zararkunanda barcha rivojlanish fazalarida soya bargining ostki tomonida (odatda, barg chuqurchalarida va tomiri bo'ylab) hamda gulyonbargda to'p-to'p bo'lib joylashadi. Barglar, hatto o'simlik ham kuchli zararlansa, ingichka kulrang o'rgimchak iplari bilan o'ralgan bo'ladi. Zararlangan barglar ustida dastlab mayda qo'ng'ir dog'lar hosil bo'ladi, keyinchalik ular tutashib barglar usti yoppasiga qo'ng'ir tusga kiradi va ular to'kilib ketadi. Gamma tunlami (*Phytometra gamma* L.) soyani xush ko'ruvchi zararkunanda sanaladi. Yosh qurtlar soya barglarini ilma-teshik qiladi. Katta yoshdagilari barglarini yeb qo'yadi. Oq chirish yoki skelerotinoz (*Scherotinie liberitana* F.) kasalligi soya ekiladigan hamma joylarda uchraydi. Dukkak hosil qilish davrida o'simlikning qurib qolishi, shoxlari, poyalari yoki birdaniga o'simlikning so'lishi kasallik alomatidir. Soyada soxta un shudring kasalligi rivojlanishida zararlangan o'simlikdan olingan donlar, shu o'simlik qoldiqlari asos bo'ladi. Soya o'simligi nihollik fazasida zararlanganda urug'palla barglari sarg'ayadi va qurib tushib ketadi. Fuzarioz kasalligi (*Fuzarium* L.) soya ekilgan hamma maydonlarda mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Yormatova D. Uzbekistonda soya yetishtirish - Toshkent: Uzbekiston, 1983Y 6 20-40.[1]
2. Yo'ldoshev H.S. "O'simlik mahsulotlari yetishtirish texnologiyasi" "Mehnat", 2001y.[2]
3. Корягин Ю.Г. Соя-Алма-Ата, Кайнар, 1998г с 36-56.[3]
- 4.Лавриенко Г.Т. Соя-М: Россельхозиздат, 1998г с 54-64.[4]
5. Мякучко Ю.П. Баранова В.Ф. Соя. Монография М., Колос. 1994г с 12-25.[5]
6. Panjiev A., Ubaydullaev SH., Erkaev N. "Soya", Qarshi, 2006 y.[6]